**XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 25-sentabr VI-97-118-11-155-K/24 Dang‘ara tumani

**Dang’ara tumanning ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, Dang’ara tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman Komissiyasining 2024-yil 13-iyundagi 01-21/23-sonli bayonnomasi bilan Dang’ara tumanining Qo‘qon shahri, Buvayda, Uchko‘prik va Furqat tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Dang’ara tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-son xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona hududlararo bo‘linmasining 2024-yil 11-iyundagi 101-sonli xat bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman kengashining sessiyasida “Dang’ara tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

**QAROR QILADI:**

**1.** Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati;

- Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 11-iyun 101-sonli xati;

- tuman ishchi komissiyasining 2024-yil 13-iyundagi 01-21/23-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

**2.** Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

**3.** Dang’ara tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Dang’ara tumanining Qo‘qon shahri, Buvayda, Uchko‘prik va Furqat tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

**4.** Dang’ara tumanining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni 1-ilovaga, Dang’ara tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizig’ining sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**5.** Xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Dang’ara tumanining Qo‘qon shahri, Buvayda, Uchko‘prik va Furqat tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

**6.** Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining 2024-yil 6-avgust kungi VI-93-83-11-155-K/24-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

**7.** Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

**8.** Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**9.** Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.


Kengash raisi

TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2024-yil 25-sentabrdagi
VI-97-118-11-155-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Farg'ona viloyati Dang'ara tumanining**
**ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining**

**SXEMASI**




**Shartli belgilar**

*Dang'ara tumanining chegarasi va yer maydoni*

1 *Dang'ara tuman chegarasining burilish nuqtasi va raqami*

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2024-yil 25-sentabrdagi
VI-97-118-11-155-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani chegaralarini belgilashda dala kuzatuv ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha**

**T A V S I F I**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi” hamda Kadastr agentligining 2023-yil 29-noyabrdagi 84-01-sonli yig‘ilish bayonining **12-bandiga** muvofiq, Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumanning ma’muriy-hududiy chegaralari o‘rganilib chiqilib, natijada tumanlar bilan chegaralar quyidagicha kelishildi.

Dang‘ara tumanning tashqi chegarasi quyidagicha ta’riflandi: O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalar chegara chizig‘i hamda Dang‘ara tumanlar chegara chiziqlari tutashgan joyidagi zovur bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 kordinatalar tizimida, shimoliy kenglik 40°44'50,088", sharqiy uzunlik 71°01'47,938")*

**A dan B gacha Buvayda tuman yerlari bilan 1-9-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:**

**1-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 871 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'34,807", sharqiy uzunlik 71°01'16,958")*

**2-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib zovur bilan tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 727 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'29,569", sharqiy uzunlik 71°00'47,221")*

**3-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib ariq bilan tutashadi, keyin ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 200 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy yo‘nalishda 612 metr, so‘ngra yo‘lning janub tomonidan sharqiy yo‘nalishda 189 metr, so‘ng yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy yo‘nalishda 797 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'37,950", sharqiy uzunlik 71°00'58,608")*

**4-nuqtadan** chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 203 metr

masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, keyin janubiy yo‘nalishda zovurning chap tomonidan 247 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'30,490", sharqiy uzunlik 71°00'50,242")*

**5-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurdan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lining shimol tomonidan sharqiy yo‘nalishda 62 metr, keyin yo‘lni kesib o‘tib zovur bilan tutashadi, so‘ngra janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda janubiy yo‘nalishda 389 metr, so‘ngra janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 139 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va zovurning chap tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 187 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'09,284", sharqiy uzunlik 71°00'58,357")*

**6-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1028 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'37,531", sharqiy uzunlik 71°00'54,527")*

**7-nuqtadan** chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 378 metr masofadan keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1186 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 163 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 104 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°41'59,651", sharqiy uzunlik 71°00'42,747")*

**8-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 319 metr masofani o‘tib, 4N-904 avtomobil yo‘li bilan tutashadi va yo‘lning shimol tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 657 metr, so‘ngra avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan 186 metr masofani o‘tib, Uchko‘prik, Buvayda va Dang‘ara tumanlar chegara chiziqlari kesishgan Buvayda zovur bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°41'42,950", sharqiy uzunlik 71°00'14,923")*

**B dan D gacha Uchko‘prik tuman yerlari bilan 9-26-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:**

**9-nuqtadan** chegara chizig‘i Buvayda beton kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2433 metr masofani o‘tib, beton kanal bo‘yida joylashgna 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'15,650", sharqiy uzunlik 70°58'40,698")*

**10-nuqtadan** chegara chizig‘i Buvayda beton kanalini kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 940 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 352 metr masofada beton ariqni kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°41'44,076",*

*sharqiy uzunlik 70°58'11,013")*

**11-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2546 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovur burilishida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40'23,255", sharqiy uzunlik 70°58'05,021")*

**12-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 521 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 131 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 604 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'47,190", sharqiy uzunlik 70°58'08,401")*

**13-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 852 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 772 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'59,595", sharqiy uzunlik 70°58'28,302")*

**14-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 137 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1119 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'30,335", sharqiy uzunlik 70°58'56,287")*

**15-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovurga o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 347 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 113 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 414 metr masofada ariqqa o‘tadi va g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 59 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 45 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 313 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'02,834", sharqiy uzunlik 70°58'36,554")*

**16-nuqtadan** chegara chizig‘i ariqdan zovurga o‘tadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 968 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 244 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 182 metr, so‘ng janubiy yo‘nalishda 77 metr va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 149 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'18,208", sharqiy uzunlik 70°58'07,257")*

**17-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 717 metr masofada temir yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'59,118", sharqiy uzunlik 70°58'23,632")*

**18-nuqtadan** chegara chizig‘i temir yo‘lidan zovurga o‘tadi va umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan

barcha burilishlarini hisobga olgan holda 682 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'42,222", sharqiy uzunlik 70°58'39,800")*

**19-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurdan ariqqa o‘tadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 201 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 96 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 79 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'33,592", sharqiy uzunlik 70°58'33,013")*

**20-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 110 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 318 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 208 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 144 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'10,631", sharqiy uzunlik 70°58'29,591")*

**21-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovurga o‘tadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 155 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 112 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 252 metr, so‘ng janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 305 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'52,792", sharqiy uzunlik 70°58'13,378")*

**22-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurdan ariqqa o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1014 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'23,756", sharqiy uzunlik 70°58'33,474")*

**23-nuqtadan** chegara chizig‘i ariqdan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lining shimol tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 737 metr, keyin yo‘lining g‘arb tomonidan janubiy yo‘nalishda 140 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 152 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'00,522", sharqiy uzunlik 70°58'06,204")*

**24-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovurga o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 128 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 209 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'51,032", sharqiy uzunlik 70°58'03,042")*

**25-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 122 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 457 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 303 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'29,453", sharqiy uzunlik 70°57'44,976")*

**D dan E gacha Qo‘qon shahri yerlari bilan 26-43-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:**

**26-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 862 metr masofada shahar ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lining janub tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 464 metr masofada o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'49,433", sharqiy uzunlik 70°57'13,611")*

**27-nuqtadan** chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lidan ariqqa o‘tadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 869 metr masofada shahar ichki yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'16,859", sharqiy uzunlik 70°57'08,354")*

**28-nuqtadan** chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lining janub tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 363 metr masofada beton ariqqa o‘tadi va beton ariq va 4R-150 avtomobil yo‘li kesib o‘tadi, qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning shimol tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 201 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'07,544", sharqiy uzunlik 70°56'48,134")*

**29-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 125 metr, keyin shimoliy-shmioliy-g‘arbiy yo‘nalishda 469 metr masofada 4K-888 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35' 22,474", sharqiy uzunlik 70° 56' 34,831")*

**30-nuqtadan** chegara chizig‘i 4K-888 avtomobil yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1751 metr, keyin avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, beton ariq bilan tutashadi, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan 35 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'31,403", sharqiy uzunlik 70°56'01,947")*

**31-nuqtadan** chegara chizig‘i temir yo‘lning g‘arb tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1388 metr masofada A-373 avtomobil yo‘li bilan tutashadi, keyin yo‘lning shimol tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 11 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'54,580", sharqiy uzunlik 70°55'28,918")*

**32-nuqtadan** chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 21 metr masofada A-373 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, keyin ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2340 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'51,023", sharqiy uzunlik 70°54'33,191")*

**33-nuqtadan** chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 444 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'01,442", sharqiy uzunlik 70°54'20,554")*

**34-nuqtadan** chegara chizig‘i ariqdan korxona devorga o‘tadi va korxona devor bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 214 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi, keyin devor bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 95 metr, so‘ngra umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda 394 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'43,895", sharqiy uzunlik 70°54'23,675")*

**35-nuqtadan** chegara chizig‘i temir yo‘lining g‘arb tomonidan janubiy yo‘nalishda 93 metr, keyin to‘g‘ri chegara chizig‘i orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 40 metr temir yo‘lini kesib o‘tib, tomorqa devor bilan tutashadi, so‘ngra tomorqa devor bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 25 metr masofada shahar ichki yo‘lni kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'40,456", sharqiy uzunlik 70°54'21,977")*

**36-nuqtadan** chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lining g‘arb tomonidan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 38 metr masofada tomorqa chegarasi bilan tutashadi, keyin tomorqa chegarasi bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 31 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 60 metr masofani o‘tib, tomorqa devor bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'38,862", sharqiy uzunlik 70°54'18,131")*

**37-nuqtadan** chegara chizig‘i tomorqa devordan shahar ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lining shimol tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 129 metr, keyin yo‘lning sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 123 metr, so‘ngra yo‘lning janub tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 91 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 181 metr masofani o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'37,745", sharqiy uzunlik 70°54'01,344")*

**38-nuqtadan** chegara chizig‘i shahar ichki yo‘lining g‘arb tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 790 metr masofada 4R-203 avtomobil yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomonidan g‘arbiy yo‘nalishda 411 metr masofani o‘tib, yo‘l burilishida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'11,113", sharqiy uzunlik 70°53'53,174")*

**39-nuqtadan** chegara chizig‘i 4R-203 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, keyin yo‘lining g‘arb tomonidan janubiy-sharqiy yo‘nalishda 753 metr, keyin yo‘lning shimol tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 428 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 130 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'41,709", sharqiy uzunlik 70°53'50,403")*

**40-nuqtadan** chegara chizig‘i 4R-203 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, shahar ichki yo‘li bilan tutashadi, keyin yo‘lining g‘arb tomonidan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 108 metr, keyin yo‘lning shimol tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 83 metr masofada tomorqa chegarasi bilan tutashadi, so‘ngra tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 248 metr masofani o‘tib, tomorqa chegarasi burilishida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'35,700", sharqiy uzunlik 70°53'38,959")*

**41-nuqtadan** chegara chizig‘i tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy

janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 238 metr, keyin sharqiy yshnalishda 49 metr, so‘ngra janubiy yo‘nalishda 93 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 127 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'23,128", sharqiy uzunlik 70°53'42,270")*

**42-nuqtadan** chegara chizig‘i temir yo‘lining shimol tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1364 metr masofani o‘tib, Qo‘qon shahri, Dang‘ara va Furqat tumanlar chegara chiziqlari kesishgan temir yo‘li bo‘yida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'12,368", sharqiy uzunlik 70°52' 46,109")*

**E dan G gacha Furqat tumani yerlari bilan 43-73-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:**

**43-nuqtadan** chegara chizig‘i temir yo‘lining shimol tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 408 metr masofada qishloq ichki yo‘lni kesib o‘tadi va yo‘nalishi o‘zgarmagan holda temir yo‘li bo‘ylab yo‘nalishda 967 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'01,201", sharqiy uzunlik 70°51'49,587")*

**44-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 178 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 491 metr masofani o‘tib, 4R-203 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'15,613", sharqiy uzunlik 70°51' 30,360")*

**45-nuqtadan** chegara chizig‘i 4R-203 avtomobil yo‘lining janub tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 983 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 1122 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'06,136", sharqiy uzunlik 70°50'03,366")*

**46-nuqtadan** chegara chizig‘i avtomobil yo‘lni kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 538 metr, so‘ngra zovurning o‘ng tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 172 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 62 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'14,120", sharqiy uzunlik 70°49'33,070")*

**47-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 739 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'37,083", sharqiy uzunlik 70°49'29,764")*

**48-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 852 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'01,576", sharqiy uzunlik 70°49'13,557")*

**49-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 109 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 118 metr masofada zovurga o‘tadi va zovurni kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, so‘ngra ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomonidan sharqiy-shimoliy-

sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 131 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'01,808", sharqiy uzunlik 70°49'26,700")*

**50-nuqtadan** chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 177 metr, keyin yo‘lning janub tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 187 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'09,868", sharqiy uzunlik 70°49' 30,804")*

**51-nuqtadan** chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib zovur bilan tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 92 metr, so‘ngra shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 262 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 490 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'29,157", sharqiy uzunlik 70°49'34,766")*

**52-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 291 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'38,469", sharqiy uzunlik 70°49'33,298")*

**53-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 510 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 54-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°32'54,156", sharqiy uzunlik 70°49'27,107")*

**54-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 700 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 55-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'15,598", sharqiy uzunlik 70°49'17,831")*

**55-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1332 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'51,020", sharqiy uzunlik 70°48'46,367")*

**56-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 624 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'04,969", sharqiy uzunlik 70°48'30,437")*

**57-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 638 metr, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1109 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'33,608", sharqiy uzunlik 70°47'30,907")*

**58-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1048 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 59-nuqtaga

tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'00,572", sharqiy uzunlik 70°47'04,503")*

**59-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1254 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'30,058", sharqiy uzunlik 70°46'29,322")*

**60-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurdan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lini kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1800 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'08,616", sharqiy uzunlik 70°45'32,039")*

**61-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1106 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'41,615", sharqiy uzunlik 70°45'01,132")*

**62-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2219 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'27,181", sharqiy uzunlik 70°43'48,489")*

**63-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1106 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lni kesib o‘tadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1523 metr masofada dala tuproq yo‘li va beton ariqni kesib o‘tib, beton ariq bo‘yida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°35'29,891", sharqiy uzunlik 70°45'04,024")*

**64-nuqtadan** chegara chizig‘i beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 759 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 363 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 372 metr masofani o‘tib, beton ariq burilishida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'11,291", sharqiy uzunlik 70°44'41,300")*

**65-nuqtadan** chegara chizig‘i beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 94 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 746 metr masofani o‘tib, beton ariq burilishida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'35,679", sharqiy uzunlik 70°44'26,846")*

**66-nuqtadan** chegara chizig‘i beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2169 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 585 metr masofani o‘tib, beton ariq bo‘yida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'01,377", sharqiy uzunlik 70°44'11,070")*

**67-nuqtadan** chegara chizig‘i beton ariq va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 965

metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 231 metr, so‘ngra janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1651 metr, so‘ng janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 201 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'58,967", sharqiy uzunlik 70°42'35,115")*

**68-nuqtadan** chegara chizig‘i ariq va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, zovur bilan tutashadi, keyin zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 457 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1234 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 510 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 50 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'41,613", sharqiy uzunlik 70°41'20,208")*

**69-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 49 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 615 metr masofada dala tuproq yo‘li bilan tutashdi va yo‘lni kesib o‘tib, so‘ngra zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomonidan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 406 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'03,058", sharqiy uzunlik 70°40'45,758")*

**70-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 136 metr masofada dala tuproq yo‘li bilan tutashdi va yo‘lni kesib o‘tib, zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 220 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'13,535", sharqiy uzunlik 70°40'40,247")*

**71-nuqtadan** chegara chizig‘i zovurdan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lining sharq tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 201 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomonidan shimoliy yo‘nalishda 325 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'29,897", sharqiy uzunlik 70°40'37,233")*

**72-nuqtadan** chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan Sirdaryo daryosiga o‘tadi va daryosining suv oqimi bo‘ylab o‘ng qirg‘og‘idan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 245 metr, shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 160 metr masofada kesib o‘tib, O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalar chegara chiziqlari kesishgan daryo o‘zanida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'36,796", sharqiy uzunlik 70°40'22,990")*

**G dan F gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 73-74-nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi quyidagicha:**

**73-nuqtadan 74-nuqtagacha** chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi.*(shimoliy kenglik 40° 43' 12,675", sharqiy uzunlik 70° 47' 49,003")*

**F dan A gacha Namangan viloyati yerlari bilan 74-1-nuqtalar oralig‘ida**

**chegaralar tavsifi quyidagicha:**

**74-nuqtadan** chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali janubiy yo‘nalishda 154 metr masofada Sirdaryo daryosini kesib o‘tib, keyin Sirdaryo daryosining o‘ng qirg‘og‘iga tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1072 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1335 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 694 metr va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 220 metr masofani o‘tib, daryo ko‘prigining chap tomonida joylashgan 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'52,192", sharqiy uzunlik 70°49'52,630")*

**75-nuqtadan** chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali daryo ko‘prigini kesib o‘tib, sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab barcha burilishlarini hisobga olgan holda 193 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 567 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 794 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 760 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 720 metr, so‘ng sharqiy yo‘nalishda 1056 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 782 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1042 metr masofani o‘tib, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 48 metr masofada Shimoliy Bag‘dod kanalini kesib o‘tadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda daryoning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 199 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 76-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'18,103", sharqiy uzunlik 70°53'41,251")*

**76-nuqtadan** chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 425 metr masofani o‘tib, zovur bilan tutashadi va chegara to‘g‘ri chizig‘i orqali zovurni kesib o‘tib, shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘idan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 1161 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1136 metr masofani o‘tib, so‘ng umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 837 metr masofani o‘tib, daryo bo‘yida joylashgan 77-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'36,439", sharqiy uzunlik 70°55'21,803")*

**77-nuqtadan** chegara quruq chizig‘i orqali Sirdaryo daryosini tark etib, janubiy-sharqiy yo‘nalishda 28 metr masofani o‘tib, dala yo‘liga tutashadi, keyin dala yo‘lining janub tomonidan sharqiy yo‘nalishda 20 metr masofani o‘tadi va dala tuproq yo‘lidan ichki zovurga tutashadi, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 862 metr masofani o‘tib, Qorakalpoq zovuriga tutashadi, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Qorakalpoq zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 206 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 924 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 55 metr va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 42 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 509 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 89 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 354 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 78-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'31,534", sharqiy uzunlik 70°56'45,704")*

**78-nuqtadan** chegara chizig‘i sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Qorakalpoq zovurining suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 52 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 292 metr, so‘ngra umumiy sharqiy yo‘nalishda 1097 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1212 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 451 metr masofani o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 188 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 254 metr, so‘ngra g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 122 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 332 metr va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 226 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr, so‘ngra janubiy-sharqiy yo‘nalishda 136 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lining shimol tomonida joylashgan 79-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'18,246", sharqiy uzunlik 70°58'36,391").*

**79-nuqtadan** chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 4494 metr masofani o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishida 62 metr masofada avtomobil yo‘lni, kanalni kesib o‘tib zovurga tutashadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 567 metr masofani o‘tib, Farg‘ona va Namangan viloyatilar va Dang‘ara tumani chegara chiziqlari kesishgan zovur bo‘yida joylashgan boshlang‘ich 1-nuqta bilan tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'50,088", sharqiy uzunlik 71°01'47,938").*